

Stress va kasbiy stress xolatining namoyon bo‘lish jihatlari

Bog‘bekova Dilnoza Shonazarovna- Xorazm viloyati IIB Ma’naviy-ma’rifiy ishlar va kadrlar bilan ta’minlash xizmati boshlig‘ining Xotin qizlar masalalari bo‘yicha o‘ribbosari , podpolkovnik

Annotatsiya: Mazkur maqolada stress va kasbiy stress xolatining namoyon bo‘lish jihatlari, stress va kasbiy stress ta’rifi, kasbiy stressni keltirib chiqaruvchi omillar, kasbiy stress turlari to‘g‘isidagi ma’lumotlar bayon qilingan.

Kalit so‘zlar: stress , kasbiy stress, muloqot, “odam-odam” tizimidagi kasblar, yuksak xis-tuyg‘ular, kayfiyat, affektiv holat, mobillik.

O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikni qo‘lga kiritib, jahoning rivojlangan davlatlari orasida munosib o‘rinni egallab, dadil qadamlar bilan ilgarilab borar ekan, shubhasiz shu mustaqillikni va uning porloq istiqbolini ta’minlovchi omillarning ahamiyati tobora ortib boraveradi.

Barkamol avlod kamoloti g‘oyasini turmushga tadbiq etish uchun istiqlolning dastlabki kunlaridanoq milliy ma’naviyat, milliy ta’lim va tarbiya muammolarini hal qilishga jiddiy e’tibor berilmoqda.

Hozirgi davrda yuksak qobiliyatli mutaxassislarni tayyorlashga nisbatan talab kun sayin ortib bormoqda. Modomiki, shunday ekan, alohida olingan iste’dodli shaxslardagina emas, balki barcha mehnatkashlarning ijodiy imkoniyatlarini iloji boricha ko‘proq rivojlantirish zarurati yuzaga kelmoqda. Bunday sharoitda inson va uning intellektual salohiyatiga aloqador fanlarning roli ortib borishi har bir inson shaxsida mavjud yashiringan tarzdagagi imkoniyatlardan foydalanish, ularni ro‘yobga chiqarish yo‘l-yo‘riqlarini nazariy jihatdan ishlab chiqish ehtiyoji namoyon bo‘lmoqda.

Bugungi kunda psixologlarni qiynayotgan muammolardan biri bu har bir soha vakillarida, ayniqsa “odam-odam” tizimidagi kasb egalarida uchraydigan kasbiy stress holatlarini iloji boricha to‘liq va mukammal o‘rganib chiqishdir. Yuqoridagilardan kelib chiqib, shaxsda kuzatiladigan stress va kasbiy stress holatlarini ilmiy jihatdan o‘rganish dolzarb hisoblanadi.

Stress inglizcha so‘zdan olingan bo‘lib, jiddiylik, keskinlik, zo‘riqish degan ma’no anglatadi. XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab keskin vaziyat tufayli vujudga keladigan emotsiyonal holatlarni tadqiq etish psixologiya, fiziologiya, tibbiyot fanlarida

“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Issue 1. January 2024

keng ko‘lamda amalga oshirila boshlandi. Q.Turg‘unov lug‘atida stenik hisga quyidagi ta‘riflar uchraydi: stenik hislar - shaxsning hayot faoliyatini kuch-g‘ayratining orttiradigan barcha bilish jarayonlarins faollashtsradigan ijobiy hissiyot turi.

Stress tushunchasining mazmuni mohiyati borasida qator ta‘riflar uchraydi. Jumladan, A.V.Petrovskiy tomonidan stress-affektiv holatga yaqin turadigan, lekin boshdan kechirilishining davomiyligiga ko‘ra kayfiyatlargacha yaqin bo‘lgan hiss tuyg‘ulami boshdan kechirishining alohida shaklidir, deb ta‘rif beriladi. Professor E.G‘ozievning Umumiyligi psixologiya darsligida yozilishicha, stress-og‘ir jismoniy va murakkab aqliy yuklamalarining me'yordan oshib ketib, xavfli vaziyatlar tug‘ilganida, zaruriy chora-tadbirlani zudlik bilan topishga intilganda vujudga keladigan hissiy zo‘rig‘ishlar sifatida ko‘rsatiladi. Mana shunday sharoitlar va vaziyatlarning barchasini biron bir emotsiya turini ro‘yobga chiqaradi. Stress emotsiyal xolatining paydo bo‘lishi xamda kechishining psixologik xususiyatlarini aniqlash, nafaqat o‘qituvchilar, vrachlar uchun, balki sudyalar, korxona raxbari, xarbiy soha xodimlari uchun ham aloxida ijtimoiy psixologik ahamiyat kasb etadi.

Psixologiya faniga stress tushunchasini olib kirgan kanadalik fiziolog G. Sels (1936) sanaladi. U stressni tadqiq qilishda moslashuv alomati masalasiga, uning faoliyatga ijobiy xamda salbiy ta’sir etishiga aloxida ahamiyat bergen. SHuningdek, ekstremal vaziyatlardagi, murakkab jarayonlardagi stressning o‘ziga xosligi, faoliyatni qayta tashkil qilishgacha olib borishi, shunga o‘xhash sharoitlarda shaxs xulqini bashorat etish imkoniyatlari G. Sele tomonidan o‘rganilgan.

Stress xolatida shaxsning xatti-xarakatlari o‘ziga xos tarzda o‘zgaradi, unda ko‘zg‘alishning umumiyligi reaksiyasi paydo bo‘ladi, uning xarakatlari tartibsiz ravishda amalga oshiriladi. Stressning kuchayishi esa teskari reaksiyaga olib keladi, natijada tormozlanish, sustlik, zaiflik, faoliyatsizlik ustuvorlik qila boshlaydi. Lekin stress xolatida fizio-logik o‘zgarishlar tashqi tomonidan qariyb ko‘zga tashlanmasligi mumkin. Biroq muammoni echishdagi qiyinchilik, diqqatni taqsimlashdagi sarosimalik stressning tashqi ifodasi deb taxmin qilinsa bo‘ladi. Shaxs stress holatida telefon nomerini adashtiradi, vaqtini chamalashda yanglishadi, ong faoliyati engil tormozlanadi, idrok ko‘lami torayadi va boshqalar.

Stress xolatida shaxsning psixologik xususiyatlari, turmush tarbiyasi, shakllangan malakasi muxim rol o‘ynaydi. Keskinlikning oldini olishda shaxsning oliy nerv faoliyati, nerv sistemasining xususiyatlari aloxida ahamiyat kasb etadi. Undagi yuksak

“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Issue 1. January 2024

xis-tuyg‘ular (mas’uliyat, burch, javobgarlik, vatanparvarlik, sadoqat va xokazo) stress holatida xatti-xarakat buzilishshsh oldini olishga xizmat qiladi.

Stressning turlaridan biri kasbiy stress bo‘lib, bir qator mutaxassisliklar uchun kasb stressi kunlik norma hisoblanadi, shuning uchun olimlar bu masalani batafsil o‘rganishga kirishmoqdalar. Kasbiy stress nafaqat mehnat qobiliyatiga ta’sir qiladi: immunitet pasayadi, surunkali kasalliklar yomonlashadi, shuning uchun unga qanday qarshi turishni o‘rganish muhimdir.

Kasbiy stress - ishdan (kasbdan) zavqlanishni to‘xtatadigan joydan boshlanadi. Biror ish uchun sog‘lom g‘ayrat har doim yoqimli charchoqni keltirib chiqarmoqda, ammo bu uning tirmash xususiyati va xiralik bilan aloqasi yo‘q. Ish kunining davomiyligi, muddati va rahbar talablarining noaniqligi bezovtalikni kuchaytiradi va asab tizimining tiklanishiga to‘sinqinlik qiladi. Kasbiy stress sizni qulaylik hududidan uzoqlashishga majbur qiladi va faqat undan chiqmasin, u jismoniy sog‘liqqa zarar etkaza boshlaydi.

Hatto muvozanatlari va bezovtalanadigan odam ham kasbiy stressni yuzaga keltirishi mumkin, sabablari juda boshqacha bo‘lishi mumkin. Surunkali «ofis» tushkunligining rivojlanishiga quyidagilar sabab bo‘lishi mumkin:

1. Jiddiy mas’uliyatni o‘z zimmasiga olish;
2. Ish vaqtiga riosa qilmaslik;
3. Kasbiy faoliyatda o‘zini realizatsiya(imkoniyatlarni to‘liq namoyon qilolmaslik) qilolmaslik;
4. Vazifalarning imkonsiz darajada ko‘pligi;
5. Muloqotning me’yordan ortiqligi.

Kasbiy stressning oldini olish uchun quyidagilarga e’tibor berishi kerak bo‘ladi:

- Mustaxkam sog‘lik hamda jismoniy sog‘lomlikni yaxshilashga qaratilgan ongli yondashuv (sog‘lom turmush tarzi, sport bilan muntazam shug‘ullanish) ;
- O‘z kuchi va qobiliyatlariga ishonish , o‘z-o‘zini baholashning yuqoriligi;
- Yuqori mobililik (muloqotga ochiqlik) , o‘ziga ishonish, mustaqillik, kommunikativlik, qiyin vaziyatlarda tezlik bilan qaror qabul qilish alakasi, shuningdek, kabiyl tajribaga ega bo‘lish;
- Hayotdan zavqlanish, o‘ziga , atrofdagilarga, hayotga, kelajakka nisbatan ijobiy munosabat va ishonchni yo‘qotmaslik.

**“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC
INNOVATIVE RESEARCH”**

Issue 1. January 2024

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Jalilova S.X., Xaydarov F.I. Xalilova N.I. Kasb psixologiyasi. -T.: TDPU. 2010.-127 b.
2. Ivanov P.I., Zufarova M.YE. “Umumiy psixologiya” T.: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2008. -480 b.
3. Xaydarov F.I., Xalilova N.I. Umumiyl psixologiya. -T.: TDPU, 2010. – 400 b.
4. G`oziev E.G. Umumiyl psixologiya. -T.: O‘zbekistan faylasuflari milliy jamiyati. 2010. -488 b.



**Research Science and
Innovation House**